

O'ZBEKISTONDA YONG'OQ HOM ASHYOSI VA PREPARATLARINI FARMAKOGNOSTIK O'RGANISH VA STANDARTLASH

Nishonboyeva Xilolaxon Oybek qizi

ADTI magistr talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10647295>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yong'oq daraxti haqida umumiy ma'lumotlar berilishi bilan bir qatorda, yong'oqning bargi va uning tarkibi shu bilan birgalikda yong'oqning tibbiyotda qo'llanishi, qanday kasalliklarga qarshi davo vositasi ekanligi va hozirgi kunda yong'oq bargidan tayyorlangan dunyodagi preparatlar haqida ham yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: murakkab barg, flavonoid, fitokimyoviy tekshiruv, naftalin, "Juglon", tonsillit, faringit, laringit, gelmintoz, karotin, ateroskleroz, jodugar yong'og'i, metabolik sindrom.

PHARMACOGNOSTIC STUDY AND STANDARDIZATION OF WALNUT RAW MATERIALS AND PREPARATIONS IN UZBEKISTAN

Abstract. In addition to providing general information about the walnut tree, the walnut leaf and its composition, as well as the use of walnut in medicine, what diseases it is a remedy for, and what products are made from walnut leaves, are presented in this article. also covered about drugs in the world.

Key words: complex leaf, flavonoid, phytochemical examination, naphthalene, "Juglon", tonsillitis, pharyngitis, laryngitis, helminthosis, carotene, atherosclerosis, witch hazel, metabolic syndrome.

ФАРМАКОГНОСТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ И СТАНДАРТИЗАЦИЯ ОРЕХОВОГО СЫРЬЯ И ПРЕПАРАТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. Помимо общих сведений о ореховом дереве, в книге представлены ореховый лист и его состав, а также применение грецкого ореха в медицине, средство от каких болезней он является и какие изделия изготавливают из листьев грецкого ореха. В этой статье также рассказывается о наркотиках в мире.

Ключевые слова: сложный лист, флавоноид, фитохимическое исследование, нафталин, «Юглон», тонзиллит, фарингит, ларингит, гельминтоз, каротин, атеросклероз, гаммелис, метаболический синдром.

Kirish

Yong'oq - yong'oqdoshlar oilasiga mansub daraxt turi, yong'oq mevali daraxt hisoblanadi, yong'oqni O'zbekistonning istalgan viloyatidan topish mumkin. Yong'oqning shox-shabbasi qalin, keng sharsimon yoki qubbasimon, ildiz tarmog'i baquvvat, 4 m va undan ortiq chuqurlikka boradi. Bargi yirik (20-40 sm), 5-11 bargchalardan tuzilgan murakkab barg, hushbo'y (efir moyli). Yong'oq daraxtini bargining tarkibiga keladigan bo'lsak, u bandli barg, ikki urug'pallali bo'lganining hisobiga barglari murakkab bo'lib, toq patsimon tomirlagan. Barg tomirlari ochiq. Yong'oqning barglari novdada navbatma-navbat joylashgan.¹

Olimlarning aniqlashlaricha, yong'oq barglarida 17 ta birikma aniqlangan. Ulardan to'qqiztasi epikatexin, siringetin-3-0-geksozid, miritsetin-3-0-glyukoizid, miritsetin-3-0-pantotsid,

¹ 5-sinf Botanika. O'Pratov, A.To'xtayev.-2015.

taksifolin-pantotsid, kvvertsetin glyukuronid, kempferol pantotsid va kempferol ramnotsid. Bu o'simlikning barglarida fenol kislotalar, taninlar, muhim yog' kislotalari (linol kislota uning asosiy yog' kislotasi), askorbin kislotasi, flavonoidlar, kofein kislotasi va parakumar kislotalar mavjud. Yong'oq barglaridagi eng muhim flavonoidlarga kvvertsetin galaktotsid va kvvertsetin pantotsid hosilalari, kvvertsetin arabinotsid, kvvertsetin ksilotsid va kvvertsetin ramnotsid kiradi.

Yong'oqning hom barg ekstraktining fitokimyoviy tekshiruvi natijasida uglevodlar, yurak glikozidlari, fenol moddalar, flavonoidlar, alkaloidlar, oqsillar, steroidlar va tanin borligi aniqlangan.

Bundan tashqari, bu o'simlikning barglarida naftalin hosilalari, xususan, 5-gidroksi-1-4-naftoxinon borligi xabar qilingan. "Juglon" (5-gidroksi-1, 4-naftoxinon) yong'oq daraxti mevalarining yangi barglari va yashil qobig'ida joylashgan naftoxinon birikmasidir. "Juglon" yong'oq daraxtining turli organlarida eng aniq tarkibiy qism bo'lib, molekulyar og'irligi 174,16 va formulasi C₁₀H₅O₂ (OH), uning kashshofi glikozid bo'lib, o'simlikning havo qismlarida, ayniqsa barglarda birikma sifatida topiladi. Keyinchalik gidroliz orqali "Juglon"ga aylanadi. "Juglon" - issiq suvda bir oz erigan va spirtida o'rtacha darajada erigan alkaloid modda; shuning uchun yong'oq barglaridagi samarali birikmalardan biri bo'lishi mumkin, chunki yong'oq barglaridagi boshqa moddalar ko'pincha suvda eriydi yoki yog'da eriydi.²

Uning bargidan ajralib chiqadigan fitontsidlar mayda organizmlarni 12-18 sekundda halok qilishi aniqlangan. Bargi tarkibida yana B1, B2, P vitaminlari, A provitamini, karotin, bo'yoqbob va oshlovchi moddalar, efir moylari, inulin, "Juglon"dan alkaloidi va ko'plab mineral tuzlar mavjud. Bargidan, po'stlog'idan to'q jigarrang bo'yoq olinadi.³

Tahlil va natijalar.

So'nggi yillarda dunyoda zamonaviy tibbiyotda ham tabiiy, dorivor o'simliklardan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Dunyo tibbiyotida tabiiy o'simliklar, dorivor o'tlar, mevalarning tanasi, bargi, ildizi, mevalaridan kamroq yon ta'siri bo'lgan samaraliroq dori vositalarini ishlab chiqarish va samarali dozalarni aniqlash jadal rivojlanib bormoqda. Shulardan biri yong'oq bargi bo'lib, u shamollash, yo'tal, teri toshmasi, bakterial va qo'ziqorin infeksiyalari, qandli diabet, saraton, artrit, sil kabi kasalliklarni davolash uchun yaxshi manbadir.

"Bionorica" kompaniyasi tomonidan, aynan yong'oq bargi qo'shib tayyorlangan "Tonzilgon N" dori vositasi bolalar va kattalardagi o'tkir va surunkali tomoq yo'llari kasalliklarida qo'llaniladi.

"Antiparazitniy kompleks"- Flavonoidlar va taninlar manbai - biologik faol oziq-ovqat qo'shimchasi sifatida tavsiya etiladi. Gelmintozning oldini olish uchun tavsiya etiladi.

"Imupret" – "Bionorica" tomonidan ishlab chiqarilgan dori vositasi yuqori nafas yo'llarining kasalliklarini davolash uchun (tonzillit, faringit, laringit) tananing himoya kuchlarining pasayishi tufayli respirator virusli infeksiyalarda asoratlar va relapslarning oldini olishda buyuriladi. Yong'oq barglari ekstrakti immunomodulyator va antivirus ta'sirga ega Bionorica, SE dan Imupret® preparatining bir qismidir.

² Farmokognoziya. H.X.Xolmatov, O'.A. Ahmedov. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2008.

³ M.A.Jo'rayeva, Dorivor o'simliklar atlas (o'quv qo'llanma) Toshkent., Noshir nashriyoti –2019.

“Grecheskogo lista orexa” - U biologik faol oziq-ovqat qo’shimchasi sifatida ishlatiladi - flavonol glikozidlarining qo’shimcha manbai hisoblanadi.

“Limfomiozot” - limfadenit, limfangit, limfoedemani kompleks davolashning bir qismi sifatida, operatsiyadan keyingi va travmadan keyingi shishish, allergik kasalliklar, shuningdek, turli toksik omillarning uzoq muddatli ta’sirining oqibatlarini, endo va ekzotoksinlar (jismoniy ta’sir qiluvchi omillar, kimyoviy vositalar, biologik omillar, shu jumladan sil intoksikatsiyasi).

“Raw Walnuts” va “Ashwagandha Stress Relief”lar ham biologik faol qo’shimcha, stressga qarshi vosita sifatida ishlatiladi.

Yong’oq barglaridan damlamalar, infuziyalar va malhamlar tayyorlanadi. Yong’oq barglarining infuzion vitamin yetishmasligi va tana vaznining kamayishi uchun umumiy tonik sifatida olinadi.

Yong’oq barglaridan choy tayyorlash uchun 2 choy qoshiq quruq xom ashyoni 250 ml sovuq suvga quyib, qizdiring va 3-5 daqiqa qaynatib oling. Kuniga 2-3 stakan oling. Agar yong’oq barglaridan choy chayish uchun mo’ljallangan bo’lsa, uni romashka choyi bilan 1:1 nisbatda suyultirish yaxshidir. Ushbu shaklda og’izni yuvish, ko’zni yuvish va vannalar uchun maqbuldir.

Yong’oq juda ham shifobaxsh xususiyatga ega meva ekanligini yaxshi bilamiz. Uning kundalik iste’moli turli xil kasalliklarga qarshi kurashishda foydalidir. Bundan tashqari yong’oqning turli xil navlaridan tibbiyotning turli xil sohalarida dori vositalarini tayyorlash uchun qo’llaniladi. Dori tayyorlash uchun o’simlikning po’stlogi, pishib yetilgan va yetilmagan mevasi va bargi ishlatiladi. Daraxt po’stlog’i tarkibida oshlovchi, bo’yoq va boshqa moddalar, bargida S, P, B vitaminlari, karotin, flavonoidlar, efir moyi, oshlovchi va boshqa birikmalar, xom mevasi po’stida ko’p miqdorda S vitamini, “Juglon”, oshlovchi moddalar, mag’zida S, B vitamini, karotin va ko’p miqdorda yog’ bor. Pishmagan yosh mevalari bahorda (aprel–may oylarida), ichidagi danagi qotmasdan oldin yig’ib olinadi va quritmasdan vitamin konsentratlar tayyorlash hamda C vitamin olish uchun farmatsevtika zavodlariga yuboriladi. Yong’oq daraxti po’stlog’idan tayyorlangan qaynatma va bargidan tayyorlangan damlama me’da–ichak (ich ketish) kasalliklarida qo’llaniladi. Hom mevadan vitamin konsentratlari tayyorlanadi. Bu konsentratlar A vitaminoz (singari va boshqa) kasalliklarga davo qilinadi va ularning oldini olishda tibbiyotda qo’llaniladi. Yong’oqning mevasi va undan olingan moyi tabobatda ateroskleroz, jigar, surunkali kolit kasalliklarida shifo ko’rsatadi. Ularning tarkibida temir, kobalt, mis, rux, kalsiy va fosfor bo’lgani uchun kamqonlikda va homiladorlikda tavsiya etiladi va sezilarli samara beradi.

Stomatologiya amaliyotida yong’oq bargi damlamasi (1 stakan qaynab turgan suvga 1 osh qoshiq quritilgan barg) burishtiruvchi, yallig’lanishni bosuvchi, bakteriotsid va fungitsid sifatida shilliq qavatning ko’pgina xastalıklarida, bargidan va meva po’stlog’idan ajratib olingan “Juglon” preparati surtma, eritma, suspenziya holda gingvostomatit va paradontitni davolashda ishlatiladi. Hom mevasidan vitamin konsentratlari tayyorlanadi. Bu konsentratlar C — gipovitaminozida, milk qonashda, gemorragik diatezda davo qilinadi va ularning oldini olishda qo’llaniladi.⁴

Yong’oqning yana bir turi Jodugar yong’og’i (Hamamelis virginiana) bo’lib, undan gemorroy, anus yoki og’izdagi shilliq qavatning yallig’lanishi va diareyada keng foydalanish

⁴ Bolalar stomatologiyasi. S.N.Maxsudov, G.R.Shukurova – Yangiyo’l poligraph servis- 2008.

mumkin. Jodugar yong'og'i barglari va po'stlog'i an'anaviy o'simlik dori-darmonlariga kiradi. Ular I va II darajali gemorroy alomatlarini yengillashtirish uchun tasdiqlangan, bu alomatlar yonish, qichishish va anus atrofida yengil qon ketishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, yong'oq ichakdan chiqadigan joydagi shilliq qavatning yallig'lanishi, yengil terining shikastlanishi va terining yallig'lanishi (shu jumladan neyrodermatit), og'iz va ko'z sohasidagi shilliq qavatning yallig'lanishi uchun ishlatilishi mumkin.⁵

Shuningdek varikoz tomirlari chiqishida ham qo'llash mumkin (og'ir, og'riqli oyoqlar kabi). Jodugar yong'og'i qobig'i diareyani qisqa muddatli davolash uchun ham ishlatiladi. Shu bilan birgalikda, jodugar yong'og'i suvi - barglar va po'stlog'dan tayyorlangan distillyat - ko'karishlar, terining tirnash xususiyati, quyosh yonishi va hasharotlar chaqishini tashqi davolash uchun ham tavsiya etiladi.

Xulosa

Epidemiologik tadqiqotlar yong'oqni iste'mol qilishni ayollar va erkaklar salomatligi uchun yurak-qon tomir kasalliklari va o't pufagidagi toshlar va diabetning kamayishi bilan bog'laydi. Dalillar shuni ko'rsatadiki, yong'oq gipertoniya, saraton va yallig'lanishga ham foydali ta'sir ko'rsatadi. Interventsion tadqiqotlar doimiy ravishda yong'oqni iste'mol qilish, hatto sog'lom ovqatlanish sharoitida ham xolesterinni kamaytiradigan ta'sirga ega ekanligini aniqlagan va oksidlovchi stress, yallig'lanish va qon tomirlarining reaktivligiga foydali ta'sir ko'rsatadigan dalillar mavjud. Yong'oqni iste'mol qilish qon bosimi, visseral semizlik va metabolik sindromga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, yong'oq ko'plab yurak-qon tomir xavf omillariga foydali ta'sir ko'rsatishi aniq. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yong'oqlar yurak-qon tomir va metabolik foydalari bo'lgan ozuqaviy moddalarga boy mahsulot hisoblanadi.

REFERENCES

1. "Dietologiya" B.Saidov.
2. M.A.Jo'rayeva, Dorivor o'simliklar atlas (o'quv qo'llanma) Toshkent., Noshir nashriyoti -2019.
3. 5-sinf Botanika. O'Pratov, A.To'xtayev.-2015.
4. Bolalar stomatologiyasi. S.N.Maxsudov, G.R.Shukurova – Yangiyo'l poligraph servis-2008.
5. Farmokognoziya. H.X.Xolmatov, O'.A. Ahmedov. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2008.
6. Farmatsevtik texnologiya.Yo.S.Kariyeva, N.M. Rizayeva, N.Sh. Radjapova. Toshkent - 2020

⁵ Farmatsevtik texnologiya.Yo.S.Kariyeva, N.M. Rizayeva, N.Sh. Radjapova. Toshkent -2020